





Namangan viloyatida ilm va fan




Quyidagi rasmda ilmiy tadqiqot ishlari 4 ta sektorga ajratib ko'rsatilgan:

Barchamizga ma'lumki, keyingi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi ilm-fan va innovatsion tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, bu borada yaratilgan har qanday ilmiy natijalarni ishlab chiqarishni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7- maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3698-sonli qarori mazkur yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlarga dasturiy amal bo'lib xizmat qilmoqda.






**Namangan viloyat bo'yicha tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar, qabul qilinganlar va bitiruvchilar soni
(2019- vil. kishi)**



2019- yilda tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar 52 nafarni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 13 taga (33,3 %) ko'paygan.





2019- yilda viloyatimizda tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlarning umumiy soni 3 tadan iborat bolib, ulardan 3 tasi esa, olyi ta'lim muassasalarini tashkil etadi. Ularda tahsil oluvchilar soni 52 nafar bo'lib, qabul qilinganlar 31 nafarni hamda bitiruvchilar esa, 2 nafarni tashkil etgan.






**Namangan viloyati bo'yicha doktoranturasi mavjud
tashkilotlar soni
(2019- yil, birlikda)**

Jami tashkilotlar 3 ta




Oliy ta'lim muassasalari 3 ta





**Namangan viloyatida ish turlari bo'yicha tashkilotlar
tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va
tajriba-konstruktorlik ishlanmalari hajmi
(2019- yil, mlrd. so'm)***



*Bitta tashkilot bir nechta ish turini bajarganligi sabab, ish turlari hajmi yig'indisi jami yig'indiga teng emas.



**Viloyatda fan sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqot va
tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar, (2019-
yil, mlrd.so'm)**

Fan sohalari bo'yicha jami xarajatlar o'tgan yilga nisbatan 2,6 % ga oshib, 8,4 mlrd. so'm bo'lgan, shundan tabiiy va texnika fanlari 4,5 mlrd. so'mni, tibbiyot va qishloq xo'jaligi fanlari 1,4 mlrd. so'mni, ijtimoiy va gumanitar fanlar 2,5 mlrd. so'mni tashkil etgan.

